

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibligi: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





G'YOSOV ILXOM KARIMOVICH

Qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning metodologik asoslari.....287

BOLLIYEV SHAMSIDDIN TURSUNMAMATOVICH

Kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ilmiy-nazariy asoslari....300

SHARIPOV LAZIZ AKTAM O'G'LI

Comparing parametric and non-parametric efficiency measurement under data quality constraints: stochastic frontier and dea evidence from smallholder sweet sorghum farms in Uzbekistan.....306

KARIMOVA MUHAYYO ORIF QIZI

Qandolatchilik mahsulotlarining sifat nazoratini oshirishda statistik usullardan foydalanishni takomillashtirish.....314

URALOV ELSHOD SIROJIDDIN O'G'LI

Mintaqada intellektual va texnologik salohiyat tushunchasining tatbiq etish.....322

MOVLONOVA DILRABO NOMOZ QIZI

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda klasterlash mexanizmlarini takomillashtirishning konseptual asoslari.....328

JO'RAYEVA SHAXLO UCHQUN QIZI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashning aholi bandligiga ta'siri.....340

AXMEDOVA NAFISA AMIRDDIN QIZI

Innovatsion rivojlanish sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish.....347

MIRZAYEV MUZAFFAR MAXMUDOVICH

Yaponiya-O'zbekiston investitsiya hamkorligi: institutsional tuzilma va evolyutsiya bosqichlar.....356

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

MASHRAPOV AHLIDDIN TURSUNALIEVICH

Farg'ona viloyatining unumdorligi past tuproq – iqlim sharoiti uchun mos, yuqori hosilli o'rik navlarini tanlash.....366

ESHPUATOV DOSTONBEK BOXODIR O'G'LI

Iqlim o'zgarishining paxta va bug'doy hosildorligiga ta'siri: O'zbekiston tumanlari bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili (2015–2024).....371

RUZMETOV UMID ISMAILOVICH, ULUGOVA SAFARGUL FAYZULLAEVNA

Toshkent viloyati Bo'stonlik tumani sharoitida dorivor enotera (Oenothera Biennis L.) o'simligini yetishtirish uchun tuproqlarning mexanik tarkibi va agrokimyoviy xususiyatlarini baholash.....385

ПАВШАНОВА Н.А.

Урожайность и продуктивность совмещённых посевов сортов маша с хлопчатником в условиях Ташкентской области.....391

CHARIEVA XILAL DO'STMURATOVNA, TADJIEV MARDONQUL, DJURAEV BAYNIYAZ CHARIEVICH, BEGIMQULOV BEHZOD O'ROLOVICH

Ingichka tolali g'o'zaning konkurs nav sinovi ko'chatzoridagi navlar va tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilari.....398





RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING AHOLI BANDLIGIGA TA'SIRI

JO'RAYEVA SHAXLO UCHQUN QIZI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

E-mail: jorayevashaxlo28@gmail.com

Annotatsiya. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi kichik biznes subyektlari faoliyatiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi talablarni ham qo'yimoqda. Elektron tijorat, sun'iy intellekt, raqamli marketing va elektron to'lov tizimlaridan samarali foydalanish korxonalarining raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Mazkur tadqiqotda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning an'anaviy va zamonaviy shakllari, bank kreditlari, mikromoliyalashtirish, raqamli kreditlash, shuningdek, elektron to'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga kichik biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali aholi daromadlarini oshirish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, kredit olish jarayonini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyati uchun maqbul moliyalashtirish manbalarini oshirish aholi turmush farovonligini yuksaltirishning muhim omillari sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, moliyaviy barqarorlik, bandlik, xususiy tadbirkorlik, sun'iy intellekt, elektron tijorat, innovatsiyalar.

Аннотация. Быстрое развитие цифровой экономики создает новые возможности для малого бизнеса, а также новые требования. Эффективное использование электронной коммерции, искусственного интеллекта, цифрового маркетинга и электронных платежных систем становится важным фактором повышения конкурентоспособности и финансовой стабильности предприятий. В данном исследовании анализируются традиционные и современные формы финансирования малого бизнеса, банковские кредиты, микрофинансирование, цифровое кредитование, а также тенденции развития электронных платежных систем. Одновременно освещаются механизмы повышения доходов населения за счет расширения возможностей малого бизнеса по использованию финансовых ресурсов. По результатам исследования, развитие цифровых финансовых услуг, упрощение процесса получения кредитов и увеличение числа доступных источников финансирования предпринимательской деятельности рассматриваются как важные факторы повышения благосостояния населения.

Ключевые слова: цифровая экономика, малый бизнес, финансовая стабильность, занятость, частное предпринимательство, искусственный интеллект, электронная коммерция, инновации.

Abstract. The rapid development of the digital economy is creating new opportunities for small businesses, as well as new requirements. The effective use of e-commerce, artificial intelligence, digital marketing, and electronic payment systems is becoming an important factor in increasing the competitiveness and financial stability of enterprises. This study analyzes traditional and modern forms of financing small businesses, bank loans, microfinance, digital lending, as well as the development trends of electronic payment systems. At the same time, mechanisms for increasing the income of the population by expanding the opportunities for small businesses to use financial resources are highlighted. According to the results of the study, the development of digital financial services, simplifying the process of obtaining loans, and increasing the number of affordable sources of financing for entrepreneurial activities are considered important factors in improving the well-being of the population.

Keywords: digital economy, small business, financial stability, employment, private entrepreneurship, artificial intelligence, e-commerce, innovation.





KIRISH

Raqamli iqtisodiyot har bir sohada o'sish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda, jumladan, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish va rivojlantirish jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga potentsial va haqiqiy o'sish o'rtasida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, to'siqlar texnologiya, institutlar, ma'lumotlar, biznes imkoniyatlari, inson resurslari va ishlab chiqarish va biznes amaliyotini qayta tashkil etish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ko'pgina mutaxassislar va tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, raqamli iqtisodiyotga o'tish shunchaki jarayonlarni avtomatlashtirish sifatida ko'rib bo'lmaydi. Bu, birinchi navbatda, biznesni rivojlantirish va moliyalashtirish strategiyasi, korporativ madaniyat, savdo tizimlari, jamoa va jarayonlarni boshqarishdagi o'zgarishlarni, shuningdek, mutlaqo yangi mahsulotlar va texnologiyalarni yaratishda yanada tub o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. O'zgarishlarga moslashish innovatsiyalarga ochiqlik, muntazam o'sish va o'zgarishlarga sodiqlik sifatida qaraladi.

Boshqa tomondan, raqamli transformatsiya - bu raqamli texnologiyalarni biznes faoliyatining barcha jabhalariga integratsiya qilish jarayoni bo'lib, texnologiya, madaniyat, operatsiyalar va yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish tamoyillarida tub o'zgarishlarni talab qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston investitsiya darajasidagi suveren kredit reytinglariga erishishni, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishni va zamonaviy, raqobatbardosh va inklyuziv moliyaviy tizimni yaratishni rejalashtirmoqda va shu o'rinda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda raqamli iqtisodiyotda o'z biznes strukturasini tezda o'zgartirib moliyaviy barqarorligini saqlab qola oladigan kompaniyalar bozor yetakchilariga aylanmoqda, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish manbalarini va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini kashf etishga yordam bermoqda.

Raqamli texnologiyalar rivojlanib borishi bilan barcha sohalardagi kompaniyalar shiddatli raqobatga duch kelmoqda. Ushbu muhitda omon qolish va raqobatbardosh bo'lish uchun ular xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish uchun ichki biznes jarayonlarini optimallashtirish yo'llarini aniqlashlari kerak. Bu shuni anglatadiki, kompaniyalar o'z strategiyalari va boshqaruv tizimlarini muntazam ravishda ko'rib chiqishlari kerak bo'ladi. Muvaffaqiyatning asosiy omili o'zgarishlarga tez moslashish bo'lib, ko'pgina sohalar allaqachon raqamli transformatsiyalarga moslashib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda raqamli transformatsiyaga moslashish biroz qiyinchilik tug'dirmoqda va natijada biznes faoliyatlarida keltirib chiqaradigan potentsial tahdidlarni e'tiborsiz qoldiradilar.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi, shuningdek ularning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligini oshirish va aholi bandligiga





ta'siri bo'yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etib, ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining raqobat ustunliklari va moliyaviy barqarorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznesni moliyalashtirish va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, bandlikka ta'siri zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan keng qamrovli tadqiqotlarda, asosan, biznes jarayonlarining raqamli transformatsiyasi, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari hamda kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar atroflicha o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning biznes jarayonlariga integratsiyasi, innovatsion faoliyat, raqamli biznes modellari, elektron tijorat, inson kapitali hamda institutsional qo'llab-quvvatlash masalalari turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Bharadwaj, El Sawy, Pavlou va Venkatraman raqamli texnologiyalarni korxonaning umumiy biznes strategiyasi bilan uyg'unlashtirish masalasiga e'tibor qaratib, raqamli biznes strategiyasi alohida texnologik yo'nalish emas, balki korxonaning raqobat strategiyasini shakllantiruvchi omil sifatida qaralishi lozimligini asoslagan. Ushbu yondashuvda raqamli texnologiyalardan foydalanish korxonaga yangi qiymat yaratish, mijozlarga xizmat ko'rsatish va bozor imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Gregory Vialning raqamli transformatsiyaga bag'ishlangan tadqiqotida esa raqamlashtirish jarayoni faqat texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmasligi, balki tashkilotning qiymat yaratish mexanizmlari va biznes jarayonlarini o'zgartiruvchi kompleks jarayon ekanligi ko'rsatiladi. Muallif mazkur yondashuv kichik biznes uchun ham muhim bo'lib, raqamli texnologiyalarning samarasi ularning korxonaning mavjud biznes modeliga qay darajada integratsiya qilinishiga bog'liq ekanligini ta'kidlagan.

O'zbekiston sharoitida mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham raqamli texnologiyalarning kichik biznes rivojidagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, D.G'ofurov raqamli iqtisodiyotning kichik va o'rta biznesga ta'sirini tadqiq etib, raqamli texnologiyalarning biznes jarayonlariga kirib borishi korxonalar moliyaviy samaradorligi va raqobatbardoshligiga ijobiy ta'siri tahlilini olib borgan. A.Akbarov esa kichik biznesning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, raqamli tadbirkorlik, elektron tijorat va raqamli xizmatlarning kichik biznes uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishini asoslaydi.

Umuman olganda, mazkur fikrlarni umumlashtirish asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xorijiy adabiyotlarda kichik biznes raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligi ko'proq raqamli salohiyat, biznes modeli innovatsiyasi, strategik boshqaruv va texnologik imkoniyatlar bilan bog'langan bo'lsa, mahalliy



tadqiqotchilar ishlarida ushbu masalaga qo'shimcha ravishda raqamli infratuzilma, moliyaviy resurslar, raqamli ko'nikmalar, elektron tijorat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari muhim o'rin egallaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tizimli va qiyosiy tahlil usullari, statistik ma'lumotlarni o'rganish hamda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini taqqoslash asosida tahlil olib borildi. Kichik biznesning raqamli transformatsiya holatini baholashda OECD, Jahon banki va milliy statistika tashkilotlarining ochiq ma'lumotlaridan foydalanildi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning biznes raqobatbardoshligiga ta'sirini aniqlash uchun mavjud ilmiy adabiyotlar o'rganilib, ulardagi nazariy va konseptual qarashlar umumlashtirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kichik va o'rta biznesni o'z ichiga olgan barcha turdagi korxonalarning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirish va yuqori raqobatbardosh muhitda ularning faoliyatini optimallashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Kichik va o'rta korxonalarning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, sifatli tovarlar va xizmatlar hamda samarali boshqaruv kabi mavjud resurslarning to'liq doirasidan foydalanishni talab qiladi (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faolligi va raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar (2021-2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2024-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi (foizda)
YalMdagi ulushi, %	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2	92,7
Sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	124907,9	143892,7	177892	280443,8	383886,1	307,3
Sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, %	27,4	26	27	31,9	34,9	127,4
Eksport hajmi, mlrd AQSh dollari	3335,2	6157,5	6938,3	9302,5	12382,6	371,3
Jami eksportdagi ulushi, %	20	31,2	27,9	34,1	36,6	183
Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi, %	74,5	73,9	74	73,9	74,9	100,5

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

2025-yil ko'rsatkichlari Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, shu davrda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 52,2 %, sanoatdagi ulushi 34,9 % bo'lgan. Eksport bo'yicha 2021–2025-yillardagi dinamikada eksport hajmi 3,2 mlrd dollardan 12,6 mlrd dollargacha oshgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi va ishlab chiqarish salohiyatini baholashda ularning asosiy kapitalga yo'naltirayotgan investitsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sishi kichik biznes subyektlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga investitsiyalari
dinamikasi (2021-2025-yillar, mlrd.so'm)**

Kesim	2021	2022	2023	2024	2025	2024-yilda 2020-yilga nisbatan o'zgarishi (foizda)
O'zbekiston Respublikasi	109202,2	127640,6	176630,5	265685,8	362910,0	332,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2415,5	2738,0	3867,4	5940,4	13541,0	560,6
Andijon viloyati	6269,6	8466,9	12901,1	21144,9	25417,7	405,4
Buxoro viloyati	7232,8	9760,6	19413,9	28300,0	24407,7	337,5
Jizzax viloyati	6365,2	7474,6	10370,5	12330,7	18601,1	292,2
Qashqadaryo viloyati	4459,7	4303,8	7945,6	15628,0	15744,0	353,0
Navoiy viloyati	5936,5	7686,5	12453,9	12254,6	23208,9	391,0
Namangan viloyati	8606,0	9637,9	13010,3	44061,2	51178,8	594,7
Samarqand viloyati	8787,8	11438,3	16182,8	15756,6	24285,9	276,4
Surxondaryo viloyati	5744,3	5728,4	10600,2	7982,5	14460,9	251,7
Sirdaryo viloyati	4454,1	9447,5	11622,9	8384,2	11915,0	267,5
Toshkent viloyati	13599,1	13164,4	18630,1	33038,5	44103,5	324,3
Farg'ona viloyati	7644,4	9564,7	12170,2	15597,5	24267,3	317,5
Xorazm viloyati	4606,8	4596,0	4654,7	8463,6	15649,2	339,7
Toshkent shahri	23080,4	23633,0	22806,9	36803,1	56128,9	243,2

Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari dinamikasi ularning ishlab chiqarish salohiyati va moliyaviy imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalar hajmining izchil ortib borishi kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyat ko'lamini kengaytirish imkoniyatlarini oshirgan.

Mavjud korxona boshqaruv tizimi doirasida raqobatbardoshlikni oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

- korxonaning ishlab chiqarish bozoridagi mavqeini tahlil qilish;



- mazkur sohadagi yangi vazifalarni o'rganish;
- korxonaning o'z mahsulotlari va xizmatlarini muntazam nazorat qilish va boshqa korxonalar faoliyatini tizimli monitoring qilish;
- korxonaning innovatsion rivojlanishi uchun istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya mavjud kompaniyalarni raqamli texnologiyalarning o'zi amalga oshira olmaydigan yangi biznes, iqtisodiy va boshqaruv tamoyillari asosida ishlashi kerak bo'lgan "raqamli korxonalar"ga aylantirishni nazarda tutadi. Raqamli transformatsiya tashkilotning qanday ishlashi va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini tubdan qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi, bu uning faoliyatining barcha jihatlarini, jumladan, strategiya, operatsiyalar va texnologiyalarni qamrab oladi. Jumladan:

- Raqamli korxona strategiyasi eng yaxshi mijozlar tajribasini aniqlashga, noyob biznes modeli va ekotizimni boshqarishga va o'zgarishlarni boshqarishga qaratilgan;
- Vazifalarni doimiy takomillashtirish, jismoniy va raqamli obyektlarni birlashtirish va interaktiv innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi madaniyatni yaratishni o'z ichiga oladi;
- Zamonaviy texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan, jumladan, analitika, kognitiv imkoniyatlar, mobillik va boshqalardan foydalanish uchun moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi.

Raqamlashtirish orqali kichik va o'rta biznes subyektlari o'zlarining raqobatbardoshligini oshirishi, tezkor qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va boshqa bozor ishtirokchilariga nisbatan ustuvorlik o'rnatishi, shuningdek, qo'llab-quvvatlash choralari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda raqamli texnologiyalar biznes infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim, u korxona boshqaruvining barcha vazifalarini hal qilish uchun qo'llaniladi. Raqamli iqtisodiyotda kichik biznesning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlari jarayonlarni avtomatlashtirish, elektron tijorat integratsiyasi va ma'lumotlarga asoslangan marketingga qaratilgan bo'lib, ushbu vositalar kichik korxonalarga operatsion xarajatlarni kamaytirish, global mijozlar bazasiga erishish va yirik korporatsiyalarga qaraganda kamroq resurslarga ega bo'lishiga qaramay, tezroq va aqlli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, asosiy raqamli mexanizmlar tizimlaridan foydalanish qo'lda ishlashni qisqartiradi, inventarizatsiyani aniq kuzatib boradi va inson xatolarini kamaytiradi. Elektron tijorat va raqamli to'lovlar asosida ishlab chiqarishni mahalliy chegaralardan tashqariga kengaytiradi, natijada xavfsiz onlayn tranzaksiyalar esa pul oqimini tezlashtirish imkonini beradi. Quyida raqamli transformatsiya orqali ushbu muammolarning ba'zilarini hal qilishning bir nechta usullari keltirilgan.





1. Ishlab chiqarishni rejalashtirish jarayonini raqamlashtirish. Raqamli texnologiyalar turli darajalarda ishlab chiqarish rejalarini ishlab chiqishni va mavjud ishlab chiqarish resurslarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish rejalarini bajarishning maqsadga muvofiqligini tekshirishni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa qabul qilingan rejalarining haqiqiylikini sezilarli darajada yaxshilaydi.

2. Korxonada moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish orqali korxona byudjetlarini ishlab chiqish va monitoring qilishni hamda daromad va xarajat tafovutlarini o'z vaqtida bashorat qilish imkonini beradi.

3. Inson resurslarini boshqarishni raqamlashtirish. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot texnologiyalari nafaqat kadrlar yozuvlarining asosiy funktsiyalarini qo'llab-quvvatlaydi, balki xodimlarni rivojlantirish va martaba o'sishini rejalashtirish, shuningdek, turli rag'batlantirish choralari qo'llashni samarali monitoring qilish imkonini beradi.

4. Tovarlar aylanmasi va mijozlarni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish korxona faoliyati holatini o'zgartirib, raqobatni kuchaytiradi va firmalarga raqamlashtirish jarayonlariga moslashishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi. 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020.

3. Bharadwaj, A., El Sawy, O. A., Pavlou, P. A., & Venkatraman, N. (2013). Digital business strategy: Toward a next generation of insights. MIS Quarterly, 37(2), 471–482. <https://doi.org/10.25300/MISQ/2013/37:2.3>

4. Vial, G. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. The Journal of Strategic Information Systems, 28(2), 118–144. <https://doi.org/10.1016/j.jsis.2019.01.003>

5. OECD. Digital Transformation of SMEs: Challenges and Opportunities. OECD Publishing, 2021.

6. D.G'ofurov (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 3(9), 103–111. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss9-pp103-111>

7. A.A.Akbarov, (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish jarayonlari tahlili. Green Economy and Development, 2 (maxsus son).

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy statistika ma'lumotlari [Elektron resurs]. – Toshkent, 2026. – URL: <https://stat.uz>

9. World Bank. Digital Adoption Index. World Development Report 2016: Digital Dividends. Washington, DC: World Bank, 2016.

10. OECD. The Digital Transformation of SMEs. OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship. Paris: OECD Publishing, 2021. DOI: 10.1787/bdb9256a-en.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**